

SIL KASALLIGINING (TUBERKULYOZNING) KECHISHI VA DAVOSI

Jakbarova.Sh.J*Toshkent davlat tibbiyot universiteti**3-davolash fakulteti, davolash yo‘nalishi, 102-B guruh talabasi**Ilmiy rahbar: Ahmedova Gulnoza Muxtarovna**O‘zbek tili va pedagogika kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori*

Annotatsiya. Ushbu maqola Tuberkulyoz kasalligiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning kelib chiqish sabablari, yuqish yo‘llari va inson salomatligiga ta‘siri yoritiladi. Tuberkulyoz asosan havo-tomchi yo‘li orqali yuqadigan va ko‘proq o‘pkani zararlaydigan xavfli kasalliklardan biridir. Kasallikning asosiy belgilari, uni erta aniqlash usullari hamda samarali davolash choralari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tuberkulyozning oldini olishda sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish, sog‘lom turmush tarzini olib borish va muntazam tibbiy ko‘rikdan o‘tishning ahamiyati ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar. *Mycobacterium tuberculosis*, yuqumli kasallik, yo‘tal, balg‘am tahlili, immunitet, rentgen, antibiotik terapiya, profilaktika.

Kirish. Ushbu kasallikni o‘rganishning dolzarbligi uning tez yuqishi, agar kech aniqlansa davolash uzoq muddat talab qilishi mumkin. Ayniqsa, aholi orasida immuniteti past bo‘lgan shaxslar uchun u katta xavf tug‘diradi. Kasallikning ayrim dorilarga chidamli shakllari paydo bo‘layotgani uni davolashni yanada murakkablashtirmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, noto‘g‘ri ovqatlanish va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik ham kasallik tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Tuberkulyoz bugungi kunda ham dunyo bo‘ylab keng tarqalgan va jiddiy ijtimoiy-tibbiy muammo bo‘lib qolmoqda. 2024-yilda taxminan 10,7 million kishi u bilan kasallangan. Kasallik eng yuqori shu davlatlarda uchraydi: Hindiston 26%, Indoneziya 10%, Xitoy 6.8%, Filippin 6.8%, Pokiston 6.3%.

Asosiy qism. Tuberkulyoz – bu insoniyatga qadimdan ma‘lum bo‘lgan va bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan xavfli yuqumli kasalliklardan biridir. Tarixiy manbalarga ko‘ra, tuberkulyozga o‘xshash o‘pka zararlanishlari qadimgi Misr mumiyalarida ham aniqlangan. Kasallikning ilmiy asosda isbotlanishi 1882-yilda Robert Koch tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, u *Mycobacterium tuberculosis* bakteriyasini kashf etgan. Shu sababli 24-mart Butunjahon tuberkulyozga qarshi kurash kuni sifatida belgilangan.

Tuberkulyoz bir nechta turlarga bo‘linadi. Eng keng tarqalgan turi – o‘pka tuberkulyozi bo‘lib, barcha holatlarning 80–85% ini tashkil etadi. Bundan tashqari ekstrapulmonar tuberkulyoz: suyak, buyrak, limfa tugunlari va boshqa a‘zolari zararlovchi turi, miliar

tuberkulyoz: bakteriyaning qon orqali butun organizmga tarqalishi bilan kechadigan og‘ir shakl, latent tuberkulyoz: yashirin kechadigan, alomatlarsiz shakl, faol tuberkulyoz: belgilari aniq namoyon bo‘ladigan va yuqadigan shakl ham mavjud.

Kasallikning asosiy kelib chiqish sabablari immunitetning pasayishi bilan bog‘liq. Noto‘g‘ri ovqatlanish, vitamin yetishmasligi, uzoq davom etadigan stress, chekish va spirtli ichimliklarni iste‘mol qilish kasallik rivojlanish xavfini oshiradi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, immuniteti zaif insonlarda kasallikka chalinish ehtimoli bir necha barobar yuqori bo‘ladi. Shuningdek, zich yashash sharoiti va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik ham kasallik tarqalishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Tuberkulyoz asosan havo-tomchi yo‘li orqali yuqadi. Ko‘pincha quyidagi odamlar sil kasalligiga chalinish xavfi ostida bo‘ladi:

uzoq vaqt davomida kasal bilan aloqa qilgan;

nafas olish tizimining surunkali kasalliklariga chalingan;

oshqozon yoki o‘n ikki barmoqli ichak yarasi, diabet bilan og‘irigan;

uzoq vaqt davomida glyukokortikoid dorilarni qabul qilgan - gormonlar immunitetni zaiflashtiradi;

spirtli ichimliklarni suiiste‘mol qiluvchilar, qamoq joylarida bo‘lganlar, giyohvand moddalarni iste‘mol qiluvchilar;

sil kasalligi bilan kasallangan bemorlar davolanayotgan tibbiyot muassasalari xodimlari;

ilgari sil kasalliga chalinganlar. Kasallangan odam yo‘talganda, aksirganda yoki gapirganda havoga mikroskopik bakteriyalar tarqaladi va sog‘lom odam nafas olganda organizmga kiradi. Ilmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, bitta faol tuberkulyoz bilan kasallangan bemor yil davomida bir necha sog‘lom odamga kasallik yuqtirishi mumkin. Ayniqsa yopiq va shamollatilmaydigan joylarda yuqish xavfi yanada ortadi.

Kasallik inson salomatligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. U asosan o‘pkani zararlab, nafas olish jarayonini buzadi. Davolanmasa, boshqa a‘zolariga ham tarqalishi mumkin. Kattalarda sil kasalligining belgilari:

Yo‘tal. Dastlab quruq, ammo tayoqchalar tarqalishi bilan nanga aylanadi. U kamida 3 hafta davom etadi.

Past darajadagi isitma

Qonli yo‘tal.

Ko‘krak qafasidagi og‘riq.

Qattiq terlash ayniqsa kechasi.

Jismoniy mashqlar paytida nafas qisilishi.

Zaiflik, bezovtalik.

Vazn yo‘qotish.

Bolalarda sil kasalligining belgilari:
limfa tugunlarining kattalashishi va og‘rishida;
terining oqarishida, terining qon aylanishi yomonlashadi;
uyqu buzilishida;
fikir tarqoqligida;
kayfiyatning keskin o‘zgarib turishida.

Tuberkulyozni erta aniqlash kasallikni muvaffaqiyatli davolashda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi tibbiyotda rentgen tekshiruvi, balg‘am tahlili va zamonaviy laborator usullar orqali kasallik erta bosqichda aniqlanadi. Statistika ko‘ra, erta aniqlangan holatlarning 85–90% to‘liq davolanadi.

Kasallikning shifosi mavjud bo‘lib, u maxsus antibiotik dorilar bilan davolanadi. Davolash jarayoni odatda 6-8 oy davom etadi va shifokor nazorati ostida olib boriladi. Eng muhim jihat, dorilarni uzluksiz va to‘liq qabul qilishdir, chunki davoni to‘xtatish kasallikning qaytalanishiga yoki dorilarga chidamli shaklga o‘tishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tuberkulyozni erta aniqlash va to‘liq davolash orqali bemorlarning katta qismi sog‘ayishi mumkin. Ammo davolanish jarayonini to‘liq yakunlanmasa kasallikning qaytalanishi yoki dorilarga chidamli shaklga o‘tishiga olib kelishi mumkin. Davolash faqat dori bilan cheklanmaydi, balki kompleks yondashuv ya‘ni dori terapiyasi, sanatoriy davolash, immunitetni kuchaytirish va sog‘lom turmush tarzini birgalikda olib borishni talab qiladi. Shu usullar birgalikda kasallikni yengishda eng samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Yuqumli kasalliklar profilaktikasi bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent, 2023.
2. A. A. Ahmedov, Sh. R. Karimov. Yuqumli kasalliklar. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2022.
3. Ichki kasalliklar va ftiziatriya bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, 2021.
4. N. T. Yo‘ldoshev. Tibbiy mikrobiologiya asoslari. Toshkent, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi SSV klinik protokollari: Tuberkulyozni aniqlash va davolash bo‘yicha yo‘riqnoma, 2023.